



Nutq buzilishlari mavjud bo'lgan bolalarning psixologik xususiyatlari

Sharipov Mirjalol Jamoladdin o'g'li –

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Maxsus pedagogika (Logopediya) ta'lim yo'nalishi talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada nutqida kamchiliklari bo'lgan bolalarning psixologik xususiyatlari, nutq buzilishlarining asosiy turlari hamda ularning bolaning shaxsiy, emotsional va ijtimoiy rivojlanishiga ta'siri tahlil qilingan. Nutqning insonning muloqoti, tafakkuri va ijtimoiy moslashuvdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, artikulyatsion, fonetik-fonematik, leksik-grammatik va nutqning temp-ritmik buzilishlari haqida ma'lumot berilgan. Nutq buzilishlarining bolalarda o'ziga ishonchsizlik, tortinchoqlik, muloqotdan chekinish, hissiy zo'riqish va ijtimoiy faollikning pasayishiga olib kelishi mumkinligi ko'rsatib berilgan. Maqolada nutqida kamchiliklari bo'lgan bolalar bilan ishlashda logopedik, pedagogik va psixologik yordamni kompleks tashkil etishning ahamiyati asoslangan.

Kalit so'zlar: nutq buzilishi, nutq kamchiligi, bola psixologiyasi, logopediya, fonetik-fonematik buzilish, leksik-grammatik buzilish, muloqot, shaxsiy rivojlanish, psixologik xususiyatlar, korreksion yordam.

Психологические особенности детей с нарушениями речи

Аннотация. В данной статье рассматриваются психологические особенности детей с нарушениями речи, основные виды речевых нарушений, а также их влияние на личностное, эмоциональное и социальное развитие ребенка. Освещается значение речи как важнейшего средства общения, мышления и социальной адаптации человека. Кроме того, представлена информация об артикуляционных, фонетико-фонематических, лексико-грамматических нарушениях, а также о нарушениях темпо-ритмической организации речи. Показано, что речевые нарушения могут приводить к формированию у детей неуверенности в себе, застенчивости, избеганию общения, эмоциональному напряжению и снижению социальной активности. В статье обоснована важность комплексной организации логопедической, педагогической и психологической помощи детям с нарушениями речи.

Ключевые слова: нарушение речи, речевой дефект, психология ребенка, логопедия, фонетико-фонематическое нарушение, лексико-грамматическое нарушение, общение, личностное развитие, психологические особенности, коррекционная помощь.

Psychological characteristics of children with speech impairments

Annotation. *This article analyzes the psychological characteristics of children with speech disorders, the main types of speech impairments, and their impact on the personal, emotional, and social development of children. The importance of speech in human communication, thinking, and social adaptation is highlighted. The article also provides information on articulatory, phonetic-phonemic, lexical-grammatical, and tempo-rhythmic speech disorders. It is demonstrated that speech disorders may lead to self-doubt, shyness, withdrawal from communication, emotional tension, and decreased social activity in children. The article substantiates the importance of organizing comprehensive speech therapy, pedagogical, and psychological support when working with children with speech impairments.*

Keywords: *speech disorder, speech impairment, child psychology, speech therapy, phonetic-phonemic disorder, lexical-grammatical disorder, communication, personal development, psychological characteristics, corrective support.*

KIRISH

Insonning shaxs sifatida shakllanishida nutq muhim psixologik va ijtimoiy vositalardan biri hisoblanadi. Bola nutq orqali atrof-muhit bilan muloqot qiladi, o'z fikrini ifodalaydi, bilim va ijtimoiy tajribani egallaydi. Shu sababli nutqning rivojlanishidagi buzilishlar bolaning nafaqat muloqot jarayoniga, balki uning psixologik holati, shaxsiy rivojlanishi va ijtimoiy moslashuviga ham ta'sir ko'rsatishi mumkin. Nutqida kamchiliklari bo'lgan bolalarda artikulyatsion, fonetik-fonematik, leksik-grammatik va nutqning temp-ritmik jihatlariga oid buzilishlar kuzatiladi. Bunday buzilishlar bolaning fikrini to'liq va aniq ifodalashda qiyinchiliklar yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Natijada bola tengdoshlari va kattalar bilan muloqot qilishda, o'z ehtiyoj va fikrlarini ifodalashda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Mavzuning dolzarbligi shundaki, nutqida kamchiliklari bo'lgan bolalarning psixologik xususiyatlarini o'rganish ularga ko'rsatiladigan korreksion-pedagogik yordamni to'g'ri tashkil etish uchun muhim ahamiyatga ega. Nutq buzilishlarini faqat talaffuz yoki nutqiy faoliyat bilan bog'liq muammo sifatida emas, balki bolaning emotsional, ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omil sifatida o'rganish zarur.

Tadqiqotning maqsadi nutqida kamchiliklari bo'lgan bolalarning psixologik xususiyatlarini o'rganish hamda nutq buzilishlarining bolaning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga ta'sirini tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

- ✓ nutq buzilishlarining asosiy turlarini tahlil qilish;
- ✓ nutqida kamchiliklari bo'lgan bolalarning psixologik xususiyatlarini aniqlash;
- ✓ nutq buzilishlarining bolaning shaxsiy rivojlanishiga ta'sirini o'rganish;
- ✓ logopedik, pedagogik va psixologik yordamning ahamiyatini asoslash.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Nutq rivojlanishi va uning bolaning psixik taraqqiyotidagi o'rni ko'plab psixolog va pedagog olimlarning tadqiqotlarida o'rganilgan. L.S.Vygotskiyning madaniy-tarixiy nazariyasiga ko'ra, bolaning psixik rivojlanishi ijtimoiy muhit va muloqot bilan chambarchas bog'liq. Nutq tafakkur va muloqotning asosiy vositasi sifatida bolaning intellektual hamda shaxsiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. A.N.Leontyevning faoliyat nazariyasiga ko'ra, muloqot inson faoliyatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu sababli nutqdagi buzilishlar bolaning tengdoshlari va kattalar bilan munosabatlariga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

A.R.Luriya tadqiqotlarida nutqning markaziy nerv tizimi faoliyati bilan bog'liqligi, shuningdek, nutq buzilishlarining xotira, tafakkur va diqqat jarayonlari bilan o'zaro

aloqadorligi ko'rsatib berilgan. G.L.Rozengrad-Pupko bola nutqining rivojlanishini tayyorlov davri hamda nutqning mustaqil shakllanish davriga ajratgan. A.N.Leontyev esa bola nutqining shakllanishini tayyorgarlik davri, bog'chagacha bo'lgan davr, maktabgacha bo'lgan davr va maktab davriga ajratib o'rgangan. Tadqiqotchilar tomonidan qayd etilganidek, nutqning shakllanishi bolaning eshitish, idrok, tafakkur va muloqot faoliyati bilan bevosita bog'liq. Shu sababli nutq rivojlanishidagi buzilishlarni erta aniqlash va korreksion yordamni o'z vaqtida tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqotda ilmiy-pedagogik va psixologik adabiyotlarni tahlil qilish, nazariy umumlashtirish, kuzatish, suhbat hamda nutqida kamchiliklari bo'lgan bolalarning psixologik xususiyatlarini pedagogik-psixologik jihatdan tahlil qilish metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini bolaning psixik rivojlanishida ijtimoiy muhit, muloqot va faoliyatning ahamiyatini yorituvchi psixologik-pedagogik qarashlar tashkil etadi. Shuningdek, nutq buzilishlarini kompleks ravishda o'rganish, ya'ni logopedik, pedagogik va psixologik yondashuvlarning o'zaro uyg'unligi asos qilib olindi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Nutqida kamchiliklari bo'lgan bolalar artikulyatsion, fonetik-fonematik, leksik-grammatik va nutqning temp-ritmik jihatlarida turli darajadagi buzilishlarga ega bo'lishi mumkin. Artikulyatsion buzilishlarda bola ayrim tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishda qiyinchiliklarga duch keladi. Masalan, "r", "s" va "sh" tovushlarini noto'g'ri talaffuz qilish yoki buzib aytish kuzatilishi mumkin. Fonetik-fonematik buzilishlarda bola nutq tovushlarini eshitish va farqlashda qiyinchiliklarga duch keladi. Bunday bolalar ayrim tovushlarni almashtirishi, aralashtirishi yoki tushirib qoldirishi mumkin. Masalan, "k" va "g", "s" va "sh" tovushlarini farqlashda qiyinchiliklar yuzaga keladi. Leksik-grammatik buzilishlarda bolaning lug'at boyligi cheklangan bo'ladi, gap tuzish va grammatik qoidalardan foydalanishda qiyinchiliklar kuzatiladi. Bunday bolalar o'z fikrlarini izchil ifodalashda, predmet va hodisalarning belgilarini to'g'ri ifodalashda qiynalishi mumkin. Nutqning temp-ritmik buzilishlarida esa nutq sur'ati, ritmi va intonatsiyasida o'zgarishlar kuzatiladi. Duduqlanish bunday buzilishlarning keng tarqalgan ko'rinishlaridan biri bo'lib, ayrim hollarda bolaning muloqotdan qo'rqishga olib kelishi mumkin.

Nutqida kamchiliklari bo'lgan bolalarning psixologik xususiyatlari nutq buzilishining turi va darajasiga qarab turlicha namoyon bo'ladi. Bunday bolalarda o'ziga ishonchsizlik, tortinchoqlik, muloqotdan qochish, hissiy zo'riqish va ijtimoiy faollikning pasayishi kuzatilishi mumkin. Bola o'z fikrini aniq ifodalashda qiynalganida tengdoshlari bilan muloqotga kirishishdan qochishi mumkin. Ayrim hollarda tengdoshlari tomonidan noto'g'ri tushunilishi yoki masxara qilinishi bolaning o'ziga bo'lgan ishonchini pasaytiradi. Natijada bola jamoaviy faoliyatda kamroq ishtirok etishi va ijtimoiy munosabatlardan chekinishi mumkin. Ayrim bolalarda esa nutqiy qiyinchiliklarni kompensatsiya qilishga intilish natijasida yuqori faollik, qaysarlik yoki qo'zg'aluvchanlik kuzatilishi mumkin. Bunday holatlar bolaning hissiy-irodaviy sohasi va ijtimoiy munosabatlariga ta'sir ko'rsatadi. Nutq buzilishlari bolaning bilish jarayonlariga ham ta'sir qilishi mumkin. Ayniqsa, nutqiy ko'rsatmalarni tushunish, fikrni izchil bayon qilish, eslab qolish va mantiqiy bog'lanishlarni shakllantirish jarayonlarida qiyinchiliklar kuzatilishi mumkin. Shu bilan birga, bunday qiyinchiliklar barcha bolalarda bir xil namoyon bo'lmaydi. Shuning uchun korreksion ishlarni tashkil etishda bolaning individual psixologik xususiyatlarini hisobga olish zarur. Nutq buzilishlarini erta aniqlash va o'z vaqtida korreksion yordam ko'rsatish bolaning keyingi rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Erta tashxis bolaning nutqiy rivojlanishidagi qiyinchiliklarni bartaraf etish, ikkilamchi psixologik muammolarning oldini olish va ta'lim jarayoniga muvaffaqiyatli moslashish imkonini beradi.

Nutqida kamchiliklari bo'lgan bolalar bilan ishlashda logopedik mashg'ulotlar psixologik va pedagogik yordam bilan birgalikda olib borilishi kerak. Artikulyatsion gimnastika, tovush talaffuzini shakllantirish, fonematik idrokni rivojlantirish, lug'at boyligini

kengaytirish va grammatik nutqni rivojlantirish bilan bir qatorda bolaning diqqat, xotira, tafakkur va emotsional-irodaviy sohasini rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlardan ham foydalanish lozim. O'yin va interaktiv mashg'ulotlar bolalarning nutqiy faolligini oshirish bilan birga, ularning ijtimoiy ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Juftlikda va kichik guruhlarda ishlash, rolli o'yinlar, muloqotga yo'naltirilgan topshiriqlar va ijodiy mashg'ulotlar bolaning o'z fikrini erkin ifodalashiga yordam beradi. Nutq buzilishlarining yuzaga kelishida turli biologik va ijtimoiy omillar muhim ahamiyatga ega. Embrion rivojlanishidagi ayrim patologiyalar, homiladorlik davridagi asoratlar, virusli va endokrin kasalliklar, tug'ruq jarayonidagi jarohatlar va asfiksiya, bosh miya kasalliklari, bosh jarohatlari, irsiy omillar hamda noqulay ijtimoiy-maishiy sharoitlar nutq rivojlanishiga ta'sir qilishi mumkin. Shu bilan birga, nutq buzilishlarining psixologik oqibatlarini faqat biologik omillar bilan izohlab bo'lmaydi. Bolaning oiladagi muloqoti, tengdoshlari bilan munosabati, pedagogik muhit va unga ko'rsatiladigan psixologik yordam ham uning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.

XULOSA

Nutqida kamchiliklari bo'lgan bolalarning psixologik xususiyatlari nutq buzilishining turi, darajasi, bolaning individual xususiyatlari va ijtimoiy muhit bilan chambarchas bog'liq. Nutq buzilishlari bolaning faqat nutqiy faoliyatiga emas, balki uning emotsional holati, o'ziga bo'lgan ishonchi, shaxsiy rivojlanishi va ijtimoiy munosabatlariga ham ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bunday bolalarda tortinchoqlik, o'ziga ishonchsizlik, muloqotdan chekinish, hissiy zo'riqish va ijtimoiy faollikning pasayishi kabi psixologik xususiyatlar kuzatilishi mumkin. Ayrim hollarda esa qo'zg'aluvchanlik, qaysarlik va yuqori faollik kabi kompensator xatti-harakatlar namoyon bo'ladi. Shu sababli nutqida kamchiliklari bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishlar kompleks tarzda tashkil etilishi lozim. Logopedik yordam pedagogik va psixologik qo'llab-quvvatlash bilan uyg'unlashtirilishi, bolaning individual xususiyatlari hisobga olinishi kerak. Nutq buzilishlarini erta aniqlash, o'z vaqtida tashxis qo'yish va korreksion yordamni tashkil etish bolaning nutqiy, psixologik va ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Oila, ta'lim muassasasi, logoped, psixolog va pedagoglarning hamkorligi bolaning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirish, muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish va jamiyatga muvaffaqiyatli moslashishida muhim omil hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Vigotskiy L.S. Myshlenie i rech. — Moskva: Labirint, 1999.
2. Leontyev A.N. Deyatel'nost. Soznanie. Lichnost. — Moskva: Smysl, 2005.
3. Luriya A.R. Osnovy neyropsixologii. — Moskva: Akademiya, 2003.
4. Ayupova M.Y. Logopediya. — Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2007.
5. Rozengrad-Pupko G.L. Formirovanie rechi u detey rannego vozrasta.
6. Volkova L.S. Logopediya. — Moskva: Vldos, 2007.
7. Filicheva T.B., Chirkina G.V. Ustraneniye obshchego nedorazvitiya rechi u detey doshkolnogo vozrasta. — Moskva: Ayris-Press, 2005.
8. UNESCO. Inclusive Education and Children with Disabilities.
9. Vigotsky L.S. Thought and Language.
10. Luria A.R. The Working Brain: An Introduction to Neuropsychology.
11. Sharipov M.J. "Sun'iy intellekt va logopediya: nutq buzilishlarini aniqlash va tuzatishda raqamli texnologiyalarning roli". // Лучшие интеллектуальные исследования. 2025. № 48. 1-qism. B. 96–104.
12. Sharipov M.J., Matkarimova I.Z. "Alohida ehtiyojli bolalar hayotida muvozanatli tarbiyaning ahamiyati". // Journal of Universal Science Research. 2025. B. 89–95.